

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.I.12.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SAIDOV XAYOTJON RAXMATULLOYEVICH

**TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH
AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2026-yil

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии
(Doctor of Philosophy) по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy
(Doctor of Philosophy) on economical sciences**

Saidov Xayotjon Rahmatulloyevich

Tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish.3

Saidov Xayotjon Rahmatulloyevich

Совершенствование практики управления проблемными кредитами в
коммерческих банках.....27

Saidov Khayotjon Rakhmatulloevich

Improving problem loan management practices in commercial banks.....53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published work.....59

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.I.12.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SAIDOV XAYOTJON RAXMATULLOYEVICH

**TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH
AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2026-yil

**Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2022.4.PhD/Iqt2598 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.terdu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Bobakulov To'likin Ibodullayevich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Abdug'aniev Otabek Allajonovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor Abdullaev Zafar Alijonovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.I.12.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil « ____ » _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (876) 221-74-55, faks: (876) 221-71-17, e-mail: termizdu@mail.uz.

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ - raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (876) 221-74-55, faks: (876) 221-71-17, e-mail: termizdu@mail.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil « ____ » _____ kuni tarqatildi.
(2026 yil « ____ » _____ dagi № _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

A.H. Toshqulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

U.T. To'likov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

S.J. Gadoev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish banklar kapital yetarliligi, likvidlik barqarorligi va moliyaviy vositachilik samaradorligini ta'minlash orqali moliya-bank tizimining barqaror o'sishiga va real sektorni kreditlash imkoniyatlarining kengayishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Muammoli kreditlar ulushini kamaytirishga qaratilgan ilg'or risk-menejment, kredit skoringi, restrukturizatsiya, garov (kollateral)ni baholash va "erta ogohlantirish" tizimlarini joriy etish bank aktivlar sifati yaxshilanishi, kredit portfeli diversifikatsiyasi va foiz daromadlari barqarorligini kuchaytiradi. Shu sababli, taraqqiy etgan mamlakatlarning tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish amaliyoti takomillashtirilgan. "BNP "Paribas" bankda (Fransiya) kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining brutto aktivlarga nisbatan darajasi 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 0,1 foizli punktga pasaygan. "Halyk Bank"da (Qozog'iston) kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'ati 2023-yilda 2019-yilga nisbatan 33,5 foizli punktga tashkil etgan"¹. Bu esa, muammoli kreditlarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish borasidagi ilg'or xorij tajribasini tadqiq qilish va uning amaliy ahamiyatiga baho berish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Dunyo miqyosida tijorat banklari kreditlarining daromadliligi va riskliligi o'rtasidagi miqdoriy mutanosiblikni ta'minlash, kredit riskini baholash va boshqarish amaliyotini takomillashtirish, kredit riski modellaridan foydalanish aniqligini oshirish, kreditlarning geografik diversifikatsiyasini ta'minlash orqali muammoli kreditlar bilan bog'liq bo'lgan risklarni kamaytirish, jahon bozorlaridagi salbiy trendlarning muammoli kreditlarni boshqarish amaliyotiga nisbatan yuzaga kelgan salbiy ta'siriga barham bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Muammoli kreditlarni boshqarishning dolzarb masalalari ta'minlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilayotganligiga qaramasdan, dunyo bank amaliyotida, muammoli kreditlarga tashqi omillarning ta'sirini baholash aniqligini ta'minlanmaganligi, muammoli kreditlarning banklarning likvidliligiga nisbatan ta'sir darajasining yuqori ekanligi, moliyaviy inqirozlar davrida kapitalning etarlik darajasini kreditlardan ko'riladigan zararlarga nisbatan monand emasligi, muammoli kreditlarni yuzaga kelish sabablarini oldindan tezkor aniqlash tizimini rivojlanmaganligi kuzatilmoqda. Mazkur holatlar muammoli kreditlarni boshqarish masalasini dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilishning 2020-2025 yillarga mo'ljallangan strategiyasida "kreditlashni faqat bozor shartlari asosida amalga oshirish, kredit portfelini va bank risklarini boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining mo'tadil o'sishiga amal qilish, moliyaviy

¹BNP Paribas. Annual report 2023//(<https://group.bnpparibas>); Bank of America. Annual report 2022//(<https://halykbank.kz>).

risklarni baholash uchun texnologik echimlarni tatbiq etish”² bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida e’tirof etilgan. Bu esa, o‘z navbatida, muammoli kreditlarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son «2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida»gi farmonlari, 2019-yil 21-maydagi PQ-4325-son «Davlat korxonalari va ustav kapitalida davlat ishtirok etayotgan tijorat banklarini restrukturizatsiya va isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2017-yil 12-sentyabrdagi PQ-3270-son «Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsion tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy hamda madaniy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tijorat banklarining kreditlari bo‘yicha muammoli qarzdorlikni boshqarimsh amaliyotini takomillashtirish masalalari xorijlik iqtisodchi olimlar – S.Matveevskiy, J.Sinki, N.Sokolinskaya, M.Steshina, N.Mixaylova, K.Totmyanina, V.Usoskin, U.Soto, S.Xasyanova, A.Sheremet, E.Altman, A.Deerbali, A.Mian, K.Rao, A.Safi, M.Xan va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan³.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-sonli “2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.

³ Матвеевский С.С. Опыт японии по использованию аналитики больших данных для снижения кредитного риска при финансировании малых и средних предприятий//Вестник университета. – Москва, 2019. - №10. – С. 182-187.; Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.:Альпина Паблишер, 2017. – С. 485 - 486.

Соколинская Н.Э. Проблемы менеджмента кредитного портфеля в современных условиях//Банковское дело. – Москва, 1999. - №9. – С. 150-151.;

Стешина М.О., Михайлова Н.А. Совершенствование международных принципов управления банковскими рисками // Международные банковские операции. 2008. № 4.; Тотмянина, К. М. Обзор моделей вероятности дефолта//Управление финансовыми рисками. – Москва, 2011. - №1 (25); Усоскин В.М. Современный коммерческий банк: управление и операции. – М.:ЛЕНАНД, 2019. – 328 с.; Уэрто де Сото Хесус. Деньги, банковский кредит и экономические циклы. Пер. с англ. – Челябинск: Социум, 2008. – 666 с.; Хасянова С.Ю. Кредитный анализ в коммерческом банке: учеб. пособие / С.Ю. Хасянова. – М.: ИНФРА-М, 2017. – 196 с.; Шерemet, А. Д. Финансовый анализ в коммерческом банке. – М. : Финансы и статистика, 2000. – 276 с.; Altman E. I. Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy//Journal of Finance, 1968, September. – P. 63–69.; Derbali A. The credit portfolio management by the econometric models: A theoretical analysis//; Mian A., Rao K., Sufi A. Household Balance Sheets, Consumption, and the Economic Slump//Quarterly Journal of Economics. – 2013. – 128(4). – pp. 1687 - 1726.; Khan M. Senhadji. Thershild Effects in the Relatioinshop between Inflation and Growth // IMF Staff Papers. 2001. Vol. 48. - P.1-21.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan I.Alimardonov, Sh.Abdullaeva, T.Bobakulov, M.Bauetdinov, S.Gadoev, M.Iskandarov, N.Karimov, J.Majidov, A.Omonov, B.Pulatov, F.Xolmamatov, B.Maqsudov va boshqalarning ilmiy ishlarida muammoli kreditlarni boshqarishning ayrim nazariy va amaliy masalalari tadqiq qilingan⁴.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Ushbu dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston Respublikasida muammoli kreditlarni boshqarish amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

muammoli kreditlarni boshqarishning nazariy asoslarini tadqiq qilish va ularning amaliy ahamiyatiga baho berish;

kredit riskini baholash uslubiyotlarini tahlil qilish;

muammoli kreditlarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish borasidagi ilg‘or xorij tajribasini tahlil qilish va undan O‘zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlarini asoslab berish;

O‘zbekiston Respublikasida muammoli kreditlarni boshqarishning zamonaviy holatini tahlil qilish va mavjud tendensiyalarni aniqlash;

mamlakat bank amaliyotida muammoli kreditlarni boshqarishni takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan dolzarb muammolarni aniqlash;

respublikada muammoli kreditlarni boshqarish amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasining aksiyadorlik tijorat banklari – O‘zsanoatqurilishbank va Turonbank olingan.

⁴ Alimardonov I.M. Kichik biznes subyektlarini kreditlashning uslubiy va amaliy asoslarini takomillashtirish. I.f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd.et. diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – B. 28.; Abdullayeva Sh.Z. Bank risklari sharoitida tijorat banklarning kredit portfelini diversifikatsiyalash. I.f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2000.; Bobakulov T.I. O‘zbekiston Respublikasida milliy valyuta kursining barqarorligini ta’minlash borasidagi muammolar va ularni hal qilish yo‘llari. I.f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2008. – B. 13.; Bauyetdinov M.J. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning investitsion xarajatlarini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish. I.f.b.f.d. diss. – Toshkent, 2019. – 114 b.; Gadoyev S.J. O‘zbekistonda kredit mexanizmining metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish. I.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – 68 b.; Iskandarov M.L. Tijorat banklarining sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish. I.f.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2023. – 69 b.; Karimov N.G. Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiyalarni moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish muammolari. I.f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2007. – 40 b.; Majidov J.K. Tijorat banklari aktivlar portfelini shakllantirishning sifatini oshirishning dolzarb masalalari//Xalqaro moliya va hisob. – Toshkent, 2017. – №1, fevral; Omonov A.A. Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari. I.f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2008. – 35 b.; Пулатов Б.Б. Роль иностранных кредитных вложений в активации инвестиционной деятельности предприятий//Экономика.-Ташкент, 2013. - №3. – С. 163-169.; Xolmamatov F.K. Tijorat banklarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish. I.f.b. f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2019. –B. 25.

Tadqiqotning predmetini tijorat banklarining muammoli kreditlarini boshqarish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida ilmiy abstraksiya, mantiqiy fikrlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash va ekspert baholash usullaridan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

muddati o'tgan kreditlarning yo'l qo'yish mumkin bo'lgan chegaraviy darajasini hisoblashda muddatida qaytmagan barcha kreditlar, shu jumladan, sud jarayonidagi kreditlar hisobga olinishi va uning darajasi 5,0 foizga yetishi bilan 2,0-2,5 foizini bankning balansidan chiqarilishi taklifi asoslangan;

kredit oluvchining suveren kredit reytingi bilan unga berilgan kreditning risk darajasi o'rtasidagi teskari mutanosiblikni ifodalovchi kredit riskini baholashning standartlashgan usulini joriy etish orqali kredit riski darajasini pasaytirish taklifi asoslangan;

kredit portfelining tarmoq xususiyatiga va kreditning turlariga ko'ra diversifikatsiya qilishni ta'minlagan holda, umidsiz kreditlarni o'z vaqtida bankning balansidan chiqarish va yuqori likvidli ta'minotga ega kreditlarning kredit portfelidagi ulushini oshirish taklifi asoslangan;

transaksion depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi, bankning qimmatli qog'ozlarini sotishdan olingan pul mablag'larining majburiyatlar umumiy hajmidagi salmog'ini oshirish hamda regulativ kapitalning o'sish sur'atini beqaror passivlarning o'sish sur'atidan yuqori bo'lishini ta'minlash orqali kreditlarning resurs ta'minotini yaxshilash taklifi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

muammoli kreditlarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlarning amaliy ahamiyatiga baho berilgan;

to'lovlarning maqsadli ketma-ketligi qo'llanilayotgan sharoitda kredit riskini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan;

kredit riskini xedjirlash asosida muammoli kreditlarni boshqarish samaradorligini oshirish shart-sharoitlarining mohiyati ochib berilgan;

muammoli kreditlarni boshqarish amaliyotiga ta'sir qilayotgan asosiy omillarning ta'sir darajalari asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsion tadqiqot natijalarining ishonchliligi ularni muammoli kreditlarni boshqarish amaliyotini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslarining tadqiqiga, ilg'or xorij tajribasini o'rganish va umumlashtirish natijalariga hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlari, mamlakat va xorij tijorat banklarining faoliyatiga oid bo'lgan amaliy ma'lumotlarning tahlillariga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ulardan muammoli kreditlarni boshqarishning nazariy asoslarini tadqiq qilish, kredit riskini baholash uslubiyotlarini takomillashtirish, kelgusida

mamlakatning kredit tizimini rivojlantirishga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ulardan O'zbekiston Respublikasida muammoli kreditlarni boshqarishning zamonaviy holatini tahlil qilish va mavjud tendensiyalarni aniqlash, muammoli kreditlarni boshqarish amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekiston Respublikasida muammoli kreditlarni boshqarish amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar asosida:

muddati o'tgan kreditlarning yo'l qo'yish mumkin bo'lgan chegaraviy darajasini hisoblashda muddatida qaytmagan barcha kreditlar, shu jumladan, sud jarayonidagi kreditlar hisobga olinishi va uning darajasi 5,0 foizga yetishi bilan 2,0-2,5 foizini bankning balansidan chiqarilishi taklifi O'zsanoatqurilishbank amaliyotiga joriy etilgan (O'zsanoatqurilishbankning 2024-yil 19-dekabrda 127-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga tatbiqi natijasida O'zsanoatqurilishbankda tasniflangan kreditlarning umumiy hajmida shubhali kreditlarning salmog'i 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 0,4 foizli punktga kamaygan;

kredit oluvchining suveren kredit reytingi bilan unga berilgan kreditning risk darajasi o'rtasidagi teskari mutanosiblikni ifodalovchi kredit riskini baholashning standartlashgan usulini joriy etish orqali kredit riski darajasini pasaytirish taklifi O'zsanoatqurilishbank amaliyotiga joriy etilgan (O'zsanoatqurilishbankning 2024-yil 19-dekabrda 127-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga tatbiqi natijasida O'zsanoatqurilishbankda kreditlar bo'yicha zaxiralarning aktivlar bo'yicha yo'qotishlar zaxirasi hajmidagi salmog'i 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 21,2 foizli punktga pasaygan;

kredit portfelining tarmoq xususiyatiga va kreditning turlariga ko'ra diversifikatsiya qilishni ta'minlagan holda, umidsiz kreditlarni o'z vaqtida bankning balansidan chiqarish va yuqori likvidli ta'minotga ega kreditlarning kredit portfelidagi ulushini oshirish taklifi taklifi O'zsanoatqurilishbank amaliyotiga joriy etilgan (O'zsanoatqurilishbankning 2024-yil 19-dekabrda 127-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga tatbiqi natijasida O'zsanoatqurilishbankda brutto kreditlarning daromadlilik darajasi 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 1,5 foizli punktga oshgan;

transaksiyon depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi, bankning qimmatli qog'ozlarini sotishdan olingan pul mablag'larining majburiyatlar umumiy hajmidagi salmog'ini oshirish hamda regulativ kapitalning o'sish sur'atini beqaror passivlarning o'sish sur'atidan yuqori bo'lishini ta'minlash orqali kreditlarning resurs ta'minotini yaxshilash taklifi O'zsanoatqurilishbank amaliyotiga joriy etilgan (O'zsanoatqurilishbankning 2024-yil 19-dekabrda 127-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga tatbiqi natijasida O'zsanoatqurilishbankda barqaror

resurslarning passivlar hajmidagi salmog‘i 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 0,2 foizli punktga oshgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan, 4 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, shu jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan mahalliy ilmiy nashrlarda 4 ta va nufuzli xorijiy jurnallarda 3 ta ilmiy maqolalar nashr etildi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, ahamiyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy hamda amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “Tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarishning ilmiy-nazariy asoslari va xorij tajribasi” deb nomlangan birinchi bobida, tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish masalasi iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy asosda tadqiq hamda tegishli ilmiy takliflar, amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan va tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarishning xorijiy mamlakatlar tajribasi batafsil yoritib berilgan.

Rouznig fikriga ko‘ra, muammoli kredit deganda u bo‘yicha kredit oluvchi tomonidan bir va undan ortiq marta to‘lov amalga oshirilmagan kredit tushuniladi⁵.

O.Gasanov muammoli kreditlarning quyidagi turlari mavjudligini e‘tirof etadi:

- muammoli qarzdorlik to‘g‘risida ogohlantiruvchi belgilarga ega bo‘lgan kreditlar;

- kredit olgan subyektning joriy hisobraqami bo‘yicha aylanmaning qoldig‘ini kamayishi hisobiga doimiy ravishda 1-2 kunga to‘lovi kechikadigan muammoli kreditlar;

- kredit olgan subyektning moliyaviy holatini yomonlashishi hisobiga to‘lovlari tizimli bo‘lmagan holda kechikayotgan kreditlar;

- to‘lovi so‘nggi yarim yil ichida 30 kundan ortiq muddatga kechikkan kreditlar;

⁵ Хасянова С.Ю. Кредитный анализ в коммерческом банке: учеб. пособие / С.Ю. Хасянова. – М.: ИНФРА-М, 2017. – 196 с.

- kredit olgan subyekt bankrot bo'lganligi sababli umidsiz kreditga aylangan muammoli kreditlar

Xalqaro valyuta fondi (XVF) ekspertlarining tavsiyasi bo'yicha muammoli kreditlar deganda joriy sharoitlarda qaytmasligi aniq bo'lgan kreditlar tushuniladi⁶. Biroq, XVF ekspertlari o'z tavsiyasida muammoli kreditning mezonlariga aniqlik kiritmagan. Ya'ni, kredit bo'yicha to'lovni necha marta kechiktirilishi, foiz o'stirmaslik maqomini qo'llanilishi yoki qo'llanilmasligi kabi mezonlar keltirilmagan.

J.Sinkining xulosasiga ko'ra, kredit olishga talabgor bo'lgan mijozning pul oqimini tahlil qilish kredit riskini pasaytirish muhim omili bo'lgani holda, kredit portfelining sifatini ta'minlashning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi⁷.

Uerta de Sotoning fikriga ko'ra, birinchidan, tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalarini pasayishi bunga qadar foyda keltirmayotgan investitsiya loyihalarini foyda keltiradigan investitsiya loyihalariga aylantiradi; ikkinchidan, banklar tomonidan ixtiyoriy jamg'armalar bilan ta'minlanmagan kreditlar hisobidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirilishi, pirovard natijada, investitsiya loyihalarining barbod bo'lishiga va berilgan kreditlarning qaytmasligiga olib keladi⁸.

N.E. Sokolinskayaning xulosasiga ko'ra, risklarni diqqat bilan kuzatish, sifatli kredit yig'ma jildini shakllantirish, kreditlash jarayonini boshqarish uchun yaxshi ma'lumotlar bazasiga ega bo'lish kreditning sifat mazmunini ta'minlashning asosiy jihatlari hisoblanadi⁹.

T.Bobakulovning fikriga ko'ra, o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida monetizasiya darajasining past ekanligi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi debitor-kreditor qarzdorlik muammosini chuqurlashtiradi. Bu esa, ularning pul oqimini zaiflashuviga olib keladi va tijorat banklarining investitsion kreditlaridan foydalanish darajasini oshirishga to'sqinlik qiladi¹⁰.

Sh.Abdullayevaning xulosasiga ko'ra, kredit portfelini resurslarning manbalari bo'yicha deversifikatsiyalash natijalariga ko'ra, ba'zi tijorat banklarining kredit portfelida markazlashgan kreditlar salmog'ining yuqoriligini hisobga olish lozim va shu kreditlar bo'yicha banklarga yengilliklar berish, ba'zi hollarda ulardan olingan daromadni soliqdan ozod qilish kabi choralarni ko'rish maqsadga muvofiq bo'lar edi¹¹.

⁶ www.imf.org Xalqaro valyuta fondi sayti.

⁷ Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.: Альпина Паблишер, 2017. – С. 485 - 486.

⁸ Уэрто де Сото Хесус. Деньги, банковский кредит и экономические циклы. Пер. с англ. – Челябинск: Социум, 2008. – 666 с.

⁹ Соколинская Н.Э. Проблемы менеджмента кредитного портфеля в современных условиях//Банковское дело. – Москва, 1999. - №9. – С. 150-151.

¹⁰ Bobakulov T.I. O'zbekiston Respublikasida milliy valyuta kursining barqarorligini ta'minlash borasidagi muammolar va ularni hal qilish yo'llari. I.f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2008. – B. 13.

¹¹ Abdullayeva Sh.Z. Bank risklari sharoitida tijorat banklarning kredit portfelini diversifikatsiyalash. I.f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2000.

B.Pulatovning xulosasiga ko‘ra, xorijiy kredit liniyalari quyidagi afzalliklarga ega:

- kredit liniyasi kreditlash limiti summasiga ochiladi va shu tufayli mijoz har safar kredit so‘rab bankka murojaat qilish zaruriyatidan xalos bo‘ladi;
- mijoz kreditlashlimitining faqat ishlatilgan qismi uchun foiz to‘laydi;
- kredit beruvchi kreditni maqsadli ishlatilishini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi¹².

S.Gadoyevning xulosasiga ko‘ra, mamlakatimiz iqtisodiyotidagi to‘lovsizlik muammosini hal qilishni murakkablashtiradigan jiddiy omillar mavjud bo‘lib, ulardan asosiylari, fikrimizcha, quyidagilardir:

- davlat byudjetini katta miqdordagi defitsit bilan bajarilayotganligi;
- tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalarini yuqori ekanligi. Davlat byudjeti katta miqdorda defitsit bilan bajarilayotgan sharoitda Hukumat davlat byudjetining iqtisodiy xarajatlarini sezilarli darajada oshirish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi. Holbuki, iqtisodiyotning pul mablag‘lari bilan ta‘minlanganlik darajasini oshirishda davlatning byudjet siyosati katta rol o‘ynaydi. Davlat byudjetning iqtisodiy xarajatlarini oshirish orqali iqtisodiyotdagi pullar taklifini ko‘paytiradi¹³.

Kredit riskini baholash uslubiyotlari va ularning qiyosiy tavsifi bo‘yicha Xalqaro bank amaliyotida, kredit riskini baholashda Bazel qo‘mitasi tomonidan tavsiya etilgan “Standartlashgan yondashuv”dan keng foydalanilmoqda.

1-jadval

Bazel-II standartiga tavsiya etilgan kredit riskini baholash bo‘yicha standartlashgan yondashuvda kredit riskini baholash tartibi¹⁴

Reyting	Riskka tortish koeffitsientlari (%)			
	Davlat va Markaziy banklar	Kredit tashkilotlari (1-variant)	Kredit tashkilot (1-variant) (qisqa muddatli talablar)	Yuridik shaxs
AAA dan A gacha	0	20	20 (20)	20
A+ dan A – gacha	20	50	50 (20)	50
BBB + dan BBB – gacha	50	100	50 (20)	100
BB + dan BB – gacha	100	100	100 (50)	100
B + dan B – gacha	100	100	100 (50)	150
B – past	150	150	150 (150)	150
Reytingsiz	100	100	50 (20)	100

¹² Пулатов Б.Б. Роль иностранных кредитных вложений в активации инвестиционной деятельности предприятий//Экономика.-Ташкент, 2013. - №3. – С. 163-169.


¹³Gadoyev S.J. O‘zbekistonda kredit mexanizmining metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish. I.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – 68 b.

¹⁴ Basel Committee on banking supervision. International convergence of capital measurement and capital standards. Basel-II, 2006. <http://www.bis.org.publications>.

Bazel-II standartida kredit riskini baholash bo'yicha taklif etilgan "Standartlashgan yondashuv"da kredit riskining darajasi kredit olgan mijozning suveren kredit reytingiga qarab aniqlanadi. (1-jadval)

«Standard & Poor's» xalqaro reyting agentligi kompaniyalarning kredit to'loviga layoqatlilikini baholashda kutilayotgan siklik pasayishlarni va ishbilarmonlik faolligini ko'tarilishlarini o'rganadi va bunda tarmoq ichidagi va butun iqtisodiyotdagi o'zgarishlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratiladi. Ishbilarmonlik sikli bosqichining davomiyligi va chuqurligi dipazonlari bo'yicha bir-biridan sezilarli darajada farqlanishi mumkin, shuning uchun ularning kompaniyalarning kredit to'loviga ta'sirini baholash murakkab hisoblanadi¹⁵.

Muammoli kreditlarni boshqarish bo'yicha xorij tajribasi va uning amaliy ahamiyati Muammoli kreditlarni boshqarish borasida xorij banklarida boy ijobiy tajriba to'plangan bo'lib, uni o'rganish va umumlashtirish respublikamiz banklari uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.




1-rasm. BNP "Paribas" bankda (Fransiya) kredit riskining miqdori, mln. evro¹⁶

BNP "Paribas" bankda kredit riskining miqdori 2020-2022 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan, biroq, kredit riskining miqdori 2023 yilda 2022 yilga nisbatan sezilarli darajada kamaygan 2024-yilda 2023 yilga nisbatan o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, muammoli kreditlarni boshqarish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. (1-rasm) Fransiya evrohududga kiruvchi mamlakat hisoblanadi. SHu sababli, BNP "Paribas" bank kredit riskini Bazel qo'mitasining metodikasi bo'yicha baholaydi.

Muammoli kreditlarni boshqarish amaliyotini boshqarish samaradorligini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biri – bu kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining brutto aktivlarga nisbatan darajasi ko'rsatkichi hisoblanadi.

¹⁵ Assessing Global Macro-Credit Risks// SPGlobal.com/ratings.

¹⁶ Rasm muallif tomonidan BNP "Paribas" bankning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.



2-rasm. BNP “Paribas” bankda (Fransiya) kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalarining brutto aktivlarga nisbatan darajasi, foizda¹⁷

BNP “Paribas” bankda kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalarining brutto aktivlarga nisbatan darajasi 2020-2024 yillarda ushbu ko‘rsatkichning xalqaro bank amaliyotida umume’tirof etilgan me’yoriy darajasidan (1,0%) sezilarli darajada past bo‘lgan. Buning ustiga, ushbu ko‘rsatkichning darajasi 2024 yilda 2020 yilga nisbatan 0,1 foizli punktga pasaygan. Ushbu holatlar muammoli kreditlarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. (2-rasm)

**2-jadval
“Halyk Bank” (Qozog‘iston) aktivlari miqdori va uning hajmida kreditlarning salmog‘i, foizda¹⁸**

Ko‘rsatkichlar	2020y.	2021y.	2022y.	2023y.	2024y.
Aktivlarning jami summasi, mlrd. tenge	10387	12091	14395	15494	17870
Aktivlarning umumiy hajmida kreditlarning salmog‘i, %	42,8	48,6	54,6	59,9	62,8

“Halyk Bank”i aktivlarining miqdori 2020-2024 yillarda o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgani holda, mazkur davrda kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog‘i

¹⁷ Rasm muallif tomonidan BNP “Paribas” bankning yillik hisobotlari ma’lumotlari asosida tuzilgan.

¹⁸ Jadval “Halyk Bank”ining yillik hisobotlari ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

ham o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, "Halyk Bank"ida kreditlash faoliyatining ahamiyatini oshib borayotganligidan dalolat beradi. (2-jadval)

3-jadval

«Deutsche Vank»ning (Germaniya) kreditlardan olingan foizli daromadlarining miqdori va darajasi¹⁹

Ko'rsatkichlar	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.
Kreditlardan olingan foizli daromadlar, mlrd. evro	11,4	10,5	14,1	22,6	23,7
Kreditlardan olingan foizli daromadlarning jami foizli daromadlardagi ulushi, %	69,9	72,9	54,7	51,2	47,9

«Deutsche Vank»ning kreditlardan olingan foizli daromadlar summasi 2024 yilda 2020 yilga nisbatan sezilarli darajada (207,9 %) ko'paygan. Bu esa, quyidagi sabablar bilan izohlanadi: (3-jadval)

2024 yilda kreditlarning foiz stavkalarini 2020 yilga nisbatan sezilarli darajada oshganligi;

2024 yilda 2020 yilga nisbatan kreditlardan olingan foizli daromadlar summasining o'sish sur'atini kreditlar sumasining o'sish sur'atidan yuqori bo'lganligi.

E'tirof etish joizki, tijorat banklarining kreditlardan oladigan foizli daromadlariga ta'sir qiluvchi asosiy omillar bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

- bankning kredit portfelini yomonlashishi natijasida muammoli kreditlarning kredit portfelidagi ulushining o'zgarishi;

- shubhali va umidsiz kreditlarning tasniflangan kreditlarning umumiy hajmidagi salmog'ini o'zgarishi;

- berilgan kreditlarga talabning va kreditlar taklifining o'zgarishi natijasida ularning foiz stavkalari darajasining o'zgarishi;

- foiz hisoblash to'xtatilgan kreditlar summasining o'zgarishi.

Dissertatsiyaning "O'zbekiston respublikasi bank amaliyotida muammoli kreditlarni boshqarishning zamonaviy holati" deb nomlangan ikkinchi bobida Tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarishning meyoriy-huquqiy asoslari, Muammoli kreditlarni boshqarish amaliyoti, Muammoli kreditlarni boshqarish amaliyotiga ta'sir etayotgan omillarning ekonometrik tahlili keltirilgan hamda bob yakunida mazkur masalalar bo'yichailmiy xulosalar shakllantirilgan.

"O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi qonuniga

¹⁹Jadval Annual Reports. Concolitated Statement of income. www.db.com («Deutsche Vank»)ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

muvofig, Markaziy bank tijorat banklariga nisbatan majburiy zaxira talabini qo'llaydi va ushbu majburiy zaxiralar banklarning Markaziy bankdagi maxsus hisobvaraqlardagi mablag'larini deponentga o'tkazish yo'li bilan va (yoki) Markaziy bankda ochilgan vakillik hisobvarag'ida majburiy zaxiralarni o'rtachalash koeffitsienti miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblangan majburiy zaxiralarning o'rtachalashtirilgan miqdorini saqlab turish yo'li bilan ushlab turiladi, tijorat banklarida likvidlilikning vaqtinchalik taqchilligi yuzaga kelganda to'lovlarning uzluksizligini ta'minlash maqsadida Markaziy bank likvidlilikni saqlab turish uchun tijorat banklariga uch oygacha bo'lgan muddatga qisqa muddatli kreditlar tarzida tezkor yordam berishga haqli bo'lib, mazkur kreditlar bo'yicha foiz stavkasi Markaziy bankning boshqa kreditlariga doir amaldagi stavkalardan kam bo'lmasligi va u bankning aktivlari bilan ta'minlangan bo'lishi kerak; to'rtinchidan, Markaziy bank kredit tashkilotlari faoliyatini, shu jumladan, tijorat banklarining faoliyatini tartibga soladi va nazorat qiladi"²⁰.

"2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi"da tijorat banklarining muammoli kreditlarini boshqarish bilan bog'liq bo'lgan quyidagi vazifalar belgilangan:

- kreditlashni faqat bozor shartlari asosida amalga oshirish;
- bank xizmati ko'rsatishni modernizasiya qilish;
- kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash;
- kreditlash hajmlarining mo'tadil o'sishiga amal qilish;
- korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro amaliy tajribaga ega bo'lgan menejerlarni jalb qilish;
- moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik echimlarni tatbiq etish²¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida sanoatni rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning dolzarb masalasi ekanligi o'z aksini topgani holda, "milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish" mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlanishini ta'minlashning zaruriy shartlaridan biri ekanligi e'tirof etildi²².

2020-2024 yillarda O'zbekiston tijorat banklari aktivlarining tarkibida eng yuqori salmoqni kreditlar egalladi, kreditlardan keyingi ikkinchi o'rinni kassali aktivlar egalladi. (4-jadval)

²⁰ O'zbekiston Respublikasining qonuni. O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.


²¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-sonli "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmoni

²² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi [tўғрисида//www.lex.uz](https://www.lex.uz).

O‘zbekiston tijorat banklari aktivlarining tarkibi, foizda²³

Aktivlar tarkibi	2020y.	2021y.	2022y.	2023y.	2024y.
Kassali aktivlar shu jumladan:	17,2	17,3	18,1	20,0	16,3
Kassadagi naqd pul va boshqa to‘lov hujjatlari	2,4	2,7	2,4	3,5	3,3
Markaziy bankdagi mablag‘lar	5,4	5,1	7,1	6,6	4,5
Boshqa bankdagi mablag‘lar-rezident	3,7	3,6	3,0	3,1	3,8
Boshqa bankdagi mablag‘lar-norezident	5,7	5,9	5,6	6,8	4,7
Qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalar	1,2	2,6	4,4	5,7	7,7
Mijozlarning moliyaviy instrumentlar bo‘yicha majburiyatlari	0,2	0,4	0,3	0,3	0,1
Kreditlar	76,1	73,8	71,1	68,1	66,9
Asosiy vositalar	2,1	2,3	2,5	2,6	3,1
Aktivlar bo‘yicha hisoblangan foizlar	1,2	2,2	2,1	2,2	0,9
Boshqa aktivlar	2,0	1,4	1,5	1,1	1,9
Aktivlar - jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlarining umumiy hajmida muammoli kreditlarning ulushi 2021-2024 yillarda nisbatan yuqori bo‘lgan. Buning ustiga, muammoli kreditlarning ulushi 2024 yilda 2020 yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. (2-rasm)



2-rasm. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlarining umumiy hajmida muammoli kreditlarning salmog‘i, foizda²⁴

²³ Jadval www.cbu.uz saytining (O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki) ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

²⁴ Rasm muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma’lumotlari (www.cbu.uz) asosida tuzilgan.

Turonbank tomonidan berilgan kreditlarning miqdori 2020-2024 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgani holda, mazkur davrda kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'i yuqori bo'lgan. (5-jadval)

5-jadval

AT «Turonbank» kreditlarining miqdori va darajasi²⁵

Ko'rsatkichlar	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023y.	2024y.
Kreditlar, mlrd. so'm	7013	8442	9294	11764	12406
Kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'i, %	83,1	78,9	72,2	73,8	70,5

Turonbankda muammoli kreditlarning miqdori 2022-2024 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Turonbankda muammoli kreditlarning kredit portfelidagi ulushi 2024 yilda 2020 yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Bu esa, muammoli kreditlarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi (6-jadval).

6-jadval

AT «Turonbank»da NPLning miqdori va kredit portfelidagi ulushi²⁶

Ko'rsatkichlar	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023y.	2024y.
Muammoli kreditlarning miqdori, mlrd. so'm	52	266	242	271	354
Muammoli kreditlarning kredit portfelidagi ulushi, %	0,8	3,3	2,6	2,3	2,8

Dissertatsiyaning O'zbekiston tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish yo'llari deb nomlangan uchinchi bobida Muammoli kreditlarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan muammolar va ularni hal etish yo'llari hamda Muammoli kreditlarni boshqarishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishdagi mavjud masalalar yoritib berilgan. O'zbekiston Respublikasi bank amaliyotida muammoli kreditlarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan muammolardan biri – bu mamlakat iqtisodiyotini pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasini past ekanligidir.

Tahlillar ko'rsatdiki, O'zbekiston iqtisodiyotining pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasi 2019-2023 yillarda nisbatan juda past bo'lgan. Jahon banki ekspertlarining tavsiyasiga ko'ra, iqtisodiyotdagi to'lovsizlik muammosini hal qilish uchun iqtisodiyotning pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasi kamida 40,0 bo'lishi kerak²⁷.


²⁵ Jadval muallif tomonidan AT «Turonbank»ning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

²⁶ Jadval muallif tomonidan AT «Turonbank»ning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

²⁷The World Bank. Indicator/<http://data.worldbank.org/indicator>.

Mamlakatimiz tijorat banklarining muammoli kreditlarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan dolzarb muammolardan yana biri – bu milliy valyutadagi kreditlarning foiz stavkalarini yuqori ekanligidir.

Tahlillar ko‘rsatdiki, mamlakatimizda 2019-2021 yillarda tijorat banklari tomonidan milliy valyutada ajratilgan kreditlarining o‘rtachaga tortilgan yillik foiz stavkalari passayishi kuzatilgan. Ushbu kreditlarning o‘rtachaga tortilgan yillik foiz stavkalarini passayishiga ta’sir etgan omil Markaziy bank asosiy stavkasining yillik darajasi passayganligidir.



Yuqorida keltirilgan, 3-4 rasmlarda “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning 2021-2025 yillarda 1 yanvar holatida bank kredit portfelidagi muammoli kreditlar ulushi hamda ushbu muammoli kreditlar tarkibining kredit tasniflari, xususan qoniqarsiz, shubhali va umidsiz kreditlarning ulushi darajalari dinamikasi keltirilgan. Unga ko‘ra, tahlil davrida muammoli kreditlarning yuqori darajasi 2022 yil 1 yanvar holatida kuzatilgan bo‘lib, u 3,78 foizni tashkil qilgan. Bu holat, pandemiyadan keyingi davrda mijozlarning to‘lov qobiliyatining pasayganligi bilan izohlanadi. Umuman olganda bankda muammoli kreditlar ulushi tahlil davrida o‘rtacha 2,53 foizdan iborat bo‘lgan. Bu esa, bankdagi aktivlarni sifati nuqtayi nazaridan ijobiy darajada deb baholashga imkon bermaydi.

Shuningdek, bankdagi muammoli kreditlarning tarkibiy tuzilishi ularning qanchalar bank kelajagi uchun xavfli holatda ekanligini ifodalaydi. Ushbu bankda muammoli kreditlarning katta qismi qoniqarsiz kreditlardan iborat bo‘lib, uning NPLdagi ulushi 2024 yil yakunida 55,7 foiz bo‘lgan bo‘lsa, ushbu vaqtga kelib shubhali kreditlarning NPLdagi ulushi 31,0 foizli punktga pasaygan holda 27,4 foizni tashkil qilgan. Bu holatda esa, bankda eng yuqori riskli kredit sifatidagi umidsiz kreditlarning NPLdagi ulushi 14,8 foizli punktga keskin oshgan holda 16,9 foizga yetgan. Tahlil davrining so‘nggi yilidagi mazkur holat o‘z navbatida bankdagi yaratilishi lozim bo‘lgan maxsus zaxiralar hajmiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi.


²⁸ “O‘zsanoatqurilishbank” ATB 2020-2024 yillardagi hisobot ma’limotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

²⁹ “O‘zsanoatqurilishbank” ATB 2020-2024 yillardagi hisobot ma’limotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

“O‘zsanoatqurilishbank” ATBda yaratilgan maxsus zaxiralar kreditlar tasniflariga ko‘ra tarkibiy tuzilishining dinamikasi, foizda³⁰

Kreditlar tasnifi	Kredit tasnifi bo‘yicha yaratilgan zaxiralarning maxsus zaxiralardagi ulushi				
	01.01.2021	01.01.2022	01.01.2023	01.01.2024	01.01.2025
Substandar	82,6%	24,2%	29,4%	54,0%	54,2%
Qoniqarsiz	4,0%	19,2%	12,4%	11,0%	14,3%
Shubhali	2,6%	9,0%	47,7%	32,6%	14,1%
Umidsiz	10,8%	47,6%	10,4%	2,4%	17,4%
Jami:	100%	100%	100%	100%	100%

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, 7-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, bankda umidsiz kreditlarning ortishi o‘z navbatida ular bo‘yicha yaratilgan zaxiralarning maxsus zaxiralardagi ulushining ortishiga olib kelgan. Ya’ni, 2024 yil davomida uning ulushi 15,0 foizli punktga oshib 17,4% ni tashkil qilgan. 2025 yil 1 yanvar holatida bankdagi yaratilgan maxsus zaxiralar 1785,5 mlrd so‘mdan iborat bo‘lib, 2023 yil yanvar holatidagiga nisbatan 2,1 barobarga ko‘paygan. Demak, bank tomonidan kreditlar sifatini yaxshilash orqali ular bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarga doir xarajatlarni kamaytirish va zaxiralarning umumiy kreditlardagi ulushini pasaytirish zaruriy masala hisoblanadi.




5-rasm. “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda maxsus zaxiralarni yaratilish darajasining kredit toifalariga ko‘ra holati dinamikasi, foizda³¹

Bankda kredit faoliyatining uning moliyaviy barqarorligini va xavsizligini belgilovchi natijaviy salbiy jihatlaridan biri bu bankda belgilangan tartibga muvofiq

³⁰ “O‘zsanoatqurilishbank” ATB 2020-2024 yillardagi hisobot ma’limotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

³¹ “O‘zsanoatqurilishbank” ATB 2020-2024 yillardagi hisobot ma’limotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

maxsus zaxiralarning talab darajasida yaratilish holatidir. Uning natijaviy salbiyligi yaratilishi bilan bog‘liq holda xarajatlar yuzaga kelishi oqibatida sof foizli daromadlarning sof foydaga aylanish imkoniyati pasaysada, u yaratilganda banklarning keyingi faoliyatining xavfsizligi ta‘minlanadi. Bu borada mazkur bankdagi holat moliyaviy xavfsizlik jihatidan barqaror bo‘lib, tahlil davrida talab qariyb bajarilgan holda 99,0% atrofida bo‘lgan.



6-rasm. “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda kreditlar bo‘yicha ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni baholashni kreditlar bo‘yicha foizli daromadlarga nisbati, foizda³²

Ta’kidlaganimizdek, zaxiralarning yaratilishi jarayonida bankning kredit faoliyati samaradorligi pasayishi kuzatiladi. Bu holatni biz bankda kreditlar bo‘yicha mumkin bo‘lgan ehtimoliy yo‘qotishlarni baholash bo‘yicha xarajatlarni aynan shu davrdagi faoliyat manfaatdorligini ko‘rsatuvchi kreditlar bo‘yicha foizli daromadlarga nisbati orqali baholashimiz mumkin.

